

MUSIQIY PEDAGOGIKANING JAMIYAT TARAQQIYOTI O‘RNI

Isroilov A.

Andijon davlat universiteti

Boshlang‘ich ta’lim metodikasi kafedrasi v.b.dotsenti.

Annotatsiya: Ushbu maqolada musiqiy pedagogikaning rivojlanishi, taraqqiy etishi, yoshlar tarbiyasida musiqiy pedagogikaning ijtimoiy maqsadi - musiqa ixlosmandlarini shakllantirish orqali madaniy va badiiy an'analarni, to'plangan badiiy mahoratni, musiqani tinglash va eshitish madaniyatini rivojlantirish haqida fikrlar rivojlanadi.

Kalit so‘zlar: musiqa, madaniyat, badiiy mahorat, yoshlar tarbiyasi, ijtimoiy, maqsad, vazifalar, meros, estetik tarbiya, tinglash, xor, jamoa.

Annotation: This article develops ideas about the development of musical pedagogy, its progress, the social goal of musical pedagogy in youth education - the development of cultural and artistic traditions, accumulated artistic skills, the culture of listening and hearing music through the formation of music lovers.

Keywords: music, culture, artistic skills, youth education, social, purpose, tasks, heritage, aesthetic education, listening, choir, community.

Аннотация: В данной статье развиваются идеи о развитии, прогрессе музыкальной педагогики, социальной цели музыкальной педагогики в воспитании молодежи - воспитании культурно-художественных традиций, накопленного художественного мастерства, культуры музыкального слуха и слушания через формирование меломанов.

Ключевые слова: музыка, культура, художественное мастерство, воспитание молодежи, социальное, цель, задачи, наследие, эстетическое воспитание, слушание, хор, коллектив.

Yangi Ozbekistonda barcha sohalardagi singari ta’lim-tarbiya sohasida ayniqsa, musiqiy ta’limning rivojlanishi davlat ahamiyatiga miolik vaazifalardan biriga aylandi.

Hozirgi kunda musiqa pedagogikasi pedagogika fanining butun musiqiy bilimlar majmuasini o‘quvchilarga berish, musiqa ta’limi va tarbiyasining eng samarali usullari, tashkil etish shakllari va usullarini o‘rganish va ishlab chiqish bilan shug‘ullanuvchi sohasidir. Musiqa san'atining turli sohalarida o‘quvchilarning ijodiy ko‘nikmalar, tajriba va amaliy ko‘nikmalarni shakllantirib boriladi.

Musiqiy pedagogikaning obyekti - shaxsning musiqiy ta’limi va tarbiyasi jarayonidir. Musiqiy pedagogikaning predmeti - musiqa ta’limi, tarbiya nazaryasi va amaliyot bo‘lib unda musiqiy pedagogik jaroyonni mohiyati, qonuniyatlari ochib beriladi. Musiqa pedagogikasi murakkab fan bo‘lib, uning mazmuni nafaqat shaxsning individual musiqiy mayllarini rivojlantirishga, balki uning shaxsiyatini shakllantirishga ham qaratilgan.

Musiqiy pedagogikaning maqsadi umumiy va musiqa pedagogikasining shakllanish tarixini o‘rganishdan iborat bo‘ladi. Musiqa pedagogikasining vazifalari quydagilardan iborat:

-pedagogik bilimlarni egallash, musiqa san'atidagi pedagogikaning nazariy asos va qonuniyatlarini o‘rganish, umumiy va maxsus musiqa ta’limi mazmunini ochib berish,

musiqa ta’limi, tarbiya prinsiplari, metodlari, shakllarini tartibga solish; shaxsni rivojlantirish, musiqachining kasbiga oid sifatlarini shakllantirish, musiqa san’ati sohasidagi pedagogik yutuqlarni umumlashtirish.

Musiqa ta’limi - tizimlashtirilgan(tartibga solingan) musiqiy bilimlar, ko‘nikmalarni o‘zlashtirish jaroyoni va natijasi, musiqa bilim yurtlari va tizimi. Musiqa o‘qitish- o‘qituvchi rahbarligi ostida musiqiy bilimlar malaka va ko‘nikmalarni egalashning maxsus tashkil etilgan jarayoni.

Musiqa pedagogikasi tarixini o‘rganayotganda, bir tomondan, uning san’at, madaniyat va butun jamiyat taraqqiyoti bilan eng yaqin aloqadorligini yodda tutish kerak. Shu bilan birga, hodisaning boshqa tomonini ham ko‘rish kerak: musiqa pedagogikasining o‘ziga xos hayoti, o‘z mantiq’i bor. U doimo tajriba to‘playdi, badiiy va pedagogik an’analarni saqlaydi va rivojlantiradi. Musiqiy - amaliyotning turli tarixiy bosqichlari o‘rtasida uzviylik munosabatlari o‘rnatiladi, musiqa pedagogikasining uslub va uslublari tarixiy merosga aylanadi va madaniy hodisalar sifatida yashaydi.

Musiqiy pedagogikaning tarixiy shakllari musiqa madaniyatining rivojlanish darajasi, uning turi, muayyan jamiyat a’zolarining musiqiy faoliyatining tabiati bilan belgilanadi. Musiqa pedagogikasi ijtimoiy hayotni tashkil etish, musiqachilar o‘rtasida ham, musiqachilar va ularning san’ati bilan xizmat qiladiganlar o‘rtasida o‘rnatiladigan ijtimoiy munosabatlar, muhit, yashsh tarzi va boshqalar ta’sir qiladi.

Qadimgi dunyo: (Misir Suriya, Xindiston Xitoy) Antik Yuniston (Suqrot Demokrit, Aflotun va boshqalar), Qadimiy Xorazm Eron “Avesto” qadimiy turklar-Xunxu Turk xoqonligi, Arab halifaligi, Quroni Karim, Hadislar, Uyg‘onish davri O‘rta asr sharqi (Forobiy, Ibn Sino, Kaykovus, Jomiy, Navoiy, Kavkabi, Darveshali va boshq) xalq mumtoz sharq musiqasi shakllanishi, qo‘shiq ashula, katta ashulla, doston, maqom, Xorazm nota yozuvi, ustoz-shogird musiqa ta’lim tizimida

Abdulaziz Rasulov, usta Olim Komilov, Yunis Rajabiy, Turg‘un Alimatov va boshqalar) jahon umumiy bolalar tarbiyasi musiqa ta’limi (Karl Orf Zoltan Kaday, D.Kabelevskiy) professional jahon musiqa maktablari (K.N.Igumnov, A.B.Goldenveyzer, G.G.Neygauz, L.S.Auer, L.I.Yampoliskiy, P.S.Stalyariskiy va boshqalar). Ko‘p avlodlar sa’y-harakatlari bilan rivojlangan (J.S.Baxning badiiy ijodi va pedagogikasi) madaniyat bilan uyg‘unlashgan va his-tuyg‘ularni ifodalagan.

Badiiy musiqa pedagogikasi esa madaniyatdan tashqarida, madaniyatdan yuqori turolmaydi – u bilan birga yuksaladi va so‘nib boradi[1]. Ma’lumki, jamiyatda hukm surayotgan, odamlarning turmush sharoitini aks ettiruvchi siyosiy qarashlar tafakkur tarziga, ilmiy metodologiyaga ta’sir qiladi. Bundan tashqari, jamiyatga xos bo‘lgan munosabatlar pedagogik muloqot turiga ta’sir qilishi kerak. Avtoritar ierarxiyaga ega jamiyatda avtoritar pedagogika hukmronlik qiladi. Demak, musiqa pedagogikasi tarixi nafaqat vaqt o‘tishi bilan, balki musiqa madaniyati makonida ham o‘zgarib boradi, musiqiy faoliyat shakllarining xilma-xilligiga amal qiladi, musiqiy - pedagogik jarayon amalga oshiriladigan ijtimoiy sharoitlarga javob beradi.

Musiqaviy-estetik tarbiya-musiqa tarbiyasiga qaraganda ancha keng tushunchadir. Musiqiy idrokni va didni tarbiyalash, musiqiy qobiliyatni rivojlantirish doimo aqliy va axloqiy tarbiya bilan o‘zaro ta’sirda bo‘ladi. Musiqiy idrok etish go‘zallikni fahmlashdan ko‘proq doirani qamrab oladi, go‘zallikni fahmlash esa, o‘z navbatida musiqiy idrok etishning turlaridan biridir.

Demak, sog‘lom did uchun kurashish shaxsning insoniy fazilati uchun qayg‘urishi demakdir. Musiqiy didi barkamol bo‘lgan o‘quvchi faqat san‘at durdonalarini tushinadigan bolagina emas, u hayot go‘zalliklarini qaysi shaklda- tabiatdami, odobdami, mehnatdami yoki atrofdagi buyumlardami, nimalarda ko‘rinmasin uni qadrlaydigan bo‘ladi. Musiqa darsi o‘ziga xos faoliyat turlari bilan: musiqa asarini tinglash va tahlil qilish, qo‘shiq kuylash, musiqa ostida harakatlar bajarish, musiqa ijodkorligi bilan ajralib turadi.

Dars jarayonida bu faoliyat turlarini bir-biridan ajratish mumkin emas, chunki ular bir-biri bilan o‘zaro bog‘langan va ba‘zan bir-biriga singib ketgan bo‘ladi. Musiqani tinglash jarayonida o‘quvchilar muayyan miqdorda musiqaviy-nazariy bilimlar oladilar, musiqa tinglash qobiliyati tajribasini to‘playdilar, ularda ayni vaqtning o‘zida taxlil qilish malakalari shakllanadi. [2]

Jamoa bo‘lib qo‘shiq aytishda qo‘shiqchilik ovozi hamda musiqa tinglash qobiliyatining barcha komponentlari (yuqori tovush, ritmika, tovushlar uyg‘unligi, tembr) rivojlanadi. Xor bo‘lib qo‘shiq aytish, bolalar musiqa asboblari chalish, musiqa ostida harakat qilish improvizatsiya (erkin ijod etish) jarayonida ijrochilik malakalarining rivojlanishi o‘quvchilarni o‘quv mashg‘ulotining faol, manfaatdor, emotsional qatnashchilariga aylantirib qo‘yadi.

Musiqa fanining vazifasi-bolalami go‘zallikka faol munosabatda bo‘lishga, musiqaga ijodiy yondoshishga o‘rgatishdan iboratdir. Bunga biron-bir asarni o‘zlashtirib va tushunib olish asosidagina emas, balki uning yaratilish tarixini, musiqa nazariyasining asoslarini, uning rivojlanish qonuniyatlarini bilish asosida erishish mumkin.

Darsda o‘quvchi faoliyatining barcha turlariga musiqani idrok qilish asos bo‘ladi. Musiqani tushinish atrofdagi hayotni to‘la to‘kis idrok qilish uchun zarurdir, chunki pirovardida san‘at asari va hayotdagi estetik narsaning mohiyatiga chuqur kirib borish qobiliyati maktab o‘quvchisi shaxsining har tomonlamma rivojlanishiga yordam beradi.

Bolaning shaxsini shakllantirishning asosiy **vazifasi** - bolaning har tomonlamma va uyg‘un rivojlanishi. N.K.Krupskaya san‘atning bola shaxsini tarbiyalashdagi ahamiyatini quyidagicha tavsiflaydi: “Biz bolaga san‘at orqali uning fikr va his-tuyg‘ularini yanada anglashi, aniqroq fikrlashi va chuqurroq his etishiga yordam berishimiz kerak”. Pedagogika, ushbu qoidalardan kelib chiqib, musiqiy ta‘lim va rivojlanish kontseptsiyasini belgilaydi. Bolaning musiqiy tarbiyasi - bu musiqa san‘atining ta’siri, qiziqishlari, ehtiyojlari va musiqaga estetik munosabatini shakllantirish orqali bolaning shaxsini maqsadli shakllantirishdir. Bolaning musiqiy rivojlanishi faol musiqiy faoliyat jarayonida bolaning shaxsiyatini shakllantirish natijasidir.

Ko‘pgina olimlar va o‘qituvchilarning fikricha, musiqiy ritm hissi ta‘lim va rivojlanishga mos kelmaydi (L.A.Brenboim, N.A.Vetlugina va boshqalar). Musiqa asboblari chalgan bolalar odatda boshqalarga qaraganda ko‘proq savodli bo‘lishadi. Musiqa xayoliy fikrlashni ham, fazoviy tasvirni ham, kundalik mashaqqatli mehnat odatini ham beradi.

4yoshdan boshlab bolalar bilan shug‘ullanishni boshlash mumkin. Muntazam musiqa darslari xotirani yaxshilaydi va bolalarning aqliy rivojlanishini rag‘batlantiradi, deydi Kanadalik olimlar. Ular musiqa darslari va diqqatni jamlash qobiliyati o‘rtasidagi bog‘liqlik mavjudligining birinchi dalillarini olishga muvaffaq bo‘lishdi.

Musiqa bilan muloqotda bo‘lgan bola har tomonlamma rivojlanadi, bolaning jismoniy ko‘rinishi yaxshilanadi, garmonik aloqalar o‘rnatiladi.

Foydanilgan adabiyotlar ro‘yhati.

1. Бычков Ю.Н. Социокультурные аспекты истории музыкальной педагогики. Лекция по курсу «Педагогика» для студентов музыкальных вузов, - М.: Изд-во Российской академии музыки им. Гнесиных, 1999.
2. Qodirov P.F. Musiqa psixologiyasi: O‘quv qo‘llanma-T.: Musiqa, 2005.-80b.
3. Qodirov P.F Musiqiy pedagogikasi. O‘quv qo‘llanma – T.: UzDK. 2009.
4. Кадиров Р.Г. Музыкальная педагогика. – Т.: УзДК 2011.
5. <http://portasound.ru/music-search//musiqa-olami>.